OMMAVIY OFERTA

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА

PROMO-AKSIYADA ISHTIROK ETISH QOIDALARI

ПРАВИЛА УЧАСТИЯ В ПРОМО-АКЦИИ

«SmartThings Holiday Contest»

Sana: 17.11.2026-yil

Ushbu «SmartThings contest» aksiyasida («Aksiya») ishtirok etish qoidalari 2026-yil 25-noyabr kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 19:00 dan 2026-yil 25-dekabr kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 23:59 gacha (shu kuni ham) amal qiladi hamda «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN» MChJ («Tashkilotchi») va Aksiya ishtirokchisi o‘rtasidagi kelishuv hisoblanadi. Aksiyada ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, Aksiya ishtirokchilarining quyidagi manzillarda joylashtirilgan mazkur Aksiyani o‘tkazish qoidalari («Qoidalar») bilan tanishganligini va ularga so‘zsiz roziligini anglatadi:

https://www.samsung.com/uz_uz/offer/connect-and-win/

https://www.samsung.com/uz_ru/offer/connect-and-win/

Дата: 17.11.2026 года

Настоящие правила участия в стимулирующей акции «SmartThings contest» («Акция») в период с 25 ноября 2026 года 19:00 времени г. Ташкент по 25 декабря 2026 г. (включительно) до 23:59 часов по времени г. Ташкент, являются соглашением между ООО «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN» («Организатор») и участником Акции. Участие в Акции является добровольным и означает ознакомление и безоговорочное согласие Участников Акции с настоящими правилами проведения Акции («Правила»), размещенными на официальном сайте по следующим адресам («Сайт Акции»):

https://www.samsung.com/uz_uz/offer/connect-and-win/

https://www.samsung.com/uz_ru/offer/connect-and-win/

1. Umumiy qoidalar / 1. Общие положения

1.1. Tashkilotchi: «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN» MChJ. Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oloy bozori berk ko‘chasi, 64, «ORIENT BUSINESS CENTER», 11-qavat.

1.1. Организатор: ООО «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN». Адрес: Республика Узбекистан, 100000, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Олой Бозори берк, 64, БЦ «ORIENT BUSINESS CENTER», 11 этаж.

1.2. Aksiyani o‘tkazish davri: 2026-yil 25-noyabr kuni soat 19:00 dan 2026-yil 25-dekabr kuni soat 23:59 gacha (shu kuni ham), Toshkent shahri vaqti bilan;

1.2. Период проведения Акции: с 25 ноября 2026 года 19:00 времени по 25 декабря 2026 года до 23:59 (включительно) по времени г. Ташкент;

1.3. Aksiya yakunlarini chiqarish sanasi: 2026-yil 29-dekabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 18:00;

1.3. Дата подведения итогов Акции: 29 декабря 2026 года в 18:00 по Ташкентскому времени;

1.4. Aksiyani o‘tkazish hududi: Tashkilotchining rasmiy Instagram kanali (Samsung Uzbekistan), Tashkilotchining Instagram onlayn platformasidagi rasmiy sahifasi — @samsunguzbekistan;

1.4. Территория проведения Акции: официальный Instagram-канал Организатора (Samsung Uzbekistan) и официальная страница Организатора в социальной сети Instagram: @samsunguzbekistan;

1.5. Sovg‘alarni topshirish punkti: O‘zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Oloy bozori berk ko‘chasi, 64, «ORIENT BUSINESS CENTER», 5-qavat.

1.5. Точка выдачи Подарков: Республика Узбекистан, 100000, г. Ташкент, Юнусабадский район, ул. Олой Бозори берк, 64, БЦ «ORIENT BUSINESS CENTER», 5 этаж.

1.6. Aksiya sayti Aksiya haqidagi asosiy axborot manbai hisoblanadi. Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlaridagi Aksiya haqidagi ma’lumot qisqartirilgan bo‘lib, barcha to‘liq va batafsil ma’lumot mazkur Qoidalarda bayon etilgan.

1.6. Сайт Акции является основным источником информации об Акции. Информация об Акции в социальных сетях Организатора является сокращенной, вся полная и подробная информация изложена в настоящих Правилах.

1.7. Tasodifiy sonlar generatori — yakuniy natijaga aralashish yoki uni noxolis belgilash imkoniyatini istisno

1.7. Генератор случайных чисел — инструмент, применяемый для случайного выбора Победителя и

etgan holda G‘olibni tasodifiy tanlash uchun qo‘llaniladigan vosita.	исключающий возможность вмешательства в конечный результат или его предвзятого определения.
1.8. G‘olib — mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan barcha shartlarni bajargan va tasodifiy sonlar generatori yordamida aniqlangan muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.	1.8. Победитель — дееспособное физическое лицо, выполнившее все условия, предусмотренные настоящими Правилами, и определенное с помощью генератора случайных чисел.
2. Aksiya ishtirokchisi / 2. Участник Акции	
2.1. Aksiya ishtirokchilari 18 yoshga to‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet el fuqarolari hamda mazkur Qoidalarning barcha shartlarini shaxsan, o‘z kuchi va mablag‘lari bilan bajargan barcha muomalaga layoqatli jismoniy shaxslar («Ishtirokchi») bo‘lishi mumkin.	2.1. Участниками Акции могут являться все дееспособные физические лица, достигшие 18 лет, являющиеся резидентами Республики Узбекистан, в том числе имеющие гражданство Республики Узбекистан, лица без гражданства, а также иностранные граждане, имеющие вид на жительство Республики Узбекистан, и выполнившие лично, своими силами и средствами все условия настоящих Правил («Участник»).
2.2. Tashkilotchining, unga aloqador shaxslarning xodimlari, ularning oila a’zolari, shuningdek Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishga aloqador boshqa kompaniyalar xodimlari Aksiyada ishtirok eta olmaydi.	2.2. В Акции не могут принимать участие сотрудники Организатора, аффилированные с ним лица, члены их семей, а также работники других компаний, причастные к организации и проведению Акции.
2.3. Aksiyada ishtirok etish, shuningdek ro‘yxatdan o‘tishda va boshqa usulda har qanday ma’lumotni (shu jumladan Aksiya saytida), jumladan shaxsga doir ma’lumotlarni taqdim etish orqali Ishtirokchi o‘zining quyidagi hajmdagi shaxsga doir ma’lumotlarini: turgan shahri, to‘liq F.I.Sh., shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari (shaxsni tasdiqlovchi guvohnoma yoki chet el fuqarosining yashash guvohnomasi), telefon raqami, elektron pochta manzili va yashash manzilini Aksiyaning o‘tkazilishini nazorat qilish, uning shartlarini bajarish, reklama, marketing va yangiliklar xabarlarini yuborish, shuningdek marketing maqsadlarida boshqa bevosita aloqalarni amalga oshirish uchun Tashkilotchi va u vakolat bergan uchinchi shaxslar tomonidan yig‘ish, saqlash, uzatish va qayta ishlashga, shu jumladan transchegaraviy tarzda qayta ishlashga rozilik beradi. Rozilik qayta ishlashning ko‘rsatilgan maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan uzatilgan ma’lumotlarni qayta ishlashning barcha turlariga, jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: olish, yozib olish, saqlash, aniqlashtirish, foydalanish, uzatish (shu jumladan amaldagi qonunchilikka muvofiq transchegaraviy uzatish), o‘chirish va yo‘q qilishga, shu jumladan Tashkilotchining vakolatli shaxslari/boshqa vakolatli shaxslar/uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishiga tatbiq etiladi. Rozilik bunday ma’lumotlar Tashkilotchiga topshirilgan paytdan boshlab mazkur rozilik amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda qaytarib olingunga qadar amal qiladi.	2.3. Принимая участие в Акции, а также предоставляя любую информацию (в том числе на Сайте Акции) при регистрации и иным образом, включая информацию, являющуюся персональными данными, Участник дает свое согласие на сбор, хранение, передачу и обработку, в том числе трансгранично, его персональных данных в объеме: город местонахождения, полное Ф.И.О., данные документа, удостоверяющего личность (удостоверение личности или вид на жительство иностранца), номер телефона, адрес электронной почты, адрес проживания, Организатору и уполномоченным им третьим лицам с целью контроля проведения Акции, выполнения ее условий, рекламных, маркетинговых и новостных рассылок, а также осуществления иных прямых контактов в маркетинговых целях. Согласие распространяется на все виды обработки переданных данных, необходимых для достижения указанных целей обработки, включая, но не ограничиваясь: получение, запись, хранение, уточнение, использование, передачу (в том числе трансграничную передачу в соответствии с применимым законодательством), удаление, уничтожение, в т.ч. уполномоченным лицам Организатора, иным уполномоченным лицам или третьим лицам. Согласие действует с момента передачи таких данных Организатору и до момента отзыва настоящего согласия в порядке, установленном действующим законодательством.
2.4. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi o‘zi ishtirokidagi foto va videotasvirga olishga, shuningdek	2.4. Принимая участие в Акции, Участник выражает свое добровольное согласие на фото- и видеосъемку с его

olingan, uning tasviri aks etgan foto va videomateriallardan axborot va marketing maqsadlarida Tashkilotchining saytida hamda Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida qo‘shimcha haq to‘lanmagan holda foydalanish va ularni joylashtirishga ixtiyoriy roziligini bildiradi.

2.5. Ishtirokchi, shuningdek, Aksiyada ishtirok etish doirasida taqdim etilgan shaxsga doir ma’lumotlarini (shu jumladan ismi, familiyasi va aloqa ma’lumotlarini) Aksiyani tashkil etish va o‘tkazish, uning yakunlarini chiqarish, qonunchilik talablarini hamda Tashkilotchining hisobot majburiyatlarini bajarish maqsadlarida qayta ishlashga rozilik beradi.

участием, а также на использование и размещение полученных фото- и видеоматериалов с его изображением на сайте Организатора и на официальных страницах Организатора в социальных сетях в информационных и маркетинговых целях без выплаты дополнительного вознаграждения.

2.5. Участник также дает согласие на обработку своих персональных данных (включая имя, фамилию, контактные данные), предоставленных в рамках участия в Акции, в целях организации и проведения Акции, подведения ее итогов, исполнения требований законодательства и отчетности Организатора.

3. Aksiyada ishtirok etish shartlari / 3. Условия участия в Акции

Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi 2026-yil 25-noyabr kuni soat 19:00 dan 2026-yil 25-dekabr kuni soat 23:59 gacha (shu kuni ham), Toshkent shahri vaqti bilan, quyida sanab o‘tilgan barcha harakatlarni bajarishi lozim:

Для участия в Акции Участнику необходимо в период с 25 ноября 2026 года 19:00 времени по 25 декабря 2026 года до 23:59 (включительно) по времени г. Ташкент совершить все нижеперечисленные действия:

3.1. SmartThings ilovasini istalgan brenddagi SmartThings ilovasini qo‘llab-quvvatlaydigan mobil qurilmaga yuklab olish, Samsung hisob yozuviga kirish yoki unda ro‘yxatdan o‘tish, ilovada o‘z qurilmasini (televizor, kir yuvish mashinasi, sovutgich va boshqalar) ulash hamda faollashtirish va qurilma faollashganligini tasdiqlovchi ekran tasviri (krinshot)ni olish.

3.1. Скачать приложение SmartThings на любое мобильное устройство независимо от бренда, совместимое с приложением SmartThings, войти в учетную запись Samsung либо зарегистрироваться в ней, подключить и активировать в приложении свое устройство (телевизор, стиральную машину, холодильник и т.д.) и сделать снимок экрана (скриншот), подтверждающий факт активации устройства в приложении SmartThings.

3.2. https://www.samsung.com/uz_uz/offer/connect-and-win/ havolasiga o‘tib, anketani to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirish, unda Ishtirokchining to‘liq ismi, pochta manzili va anketada ko‘zda tutilgan boshqa shaxsiy ma’lumotlarini ko‘rsatish hamda 3.1-bandga muvofiq olingan ekran tasviri (skrinshot)ni saytga yuklash.

3.2. Перейти по ссылке https://www.samsung.com/uz_ru/offer/connect-and-win/ , полностью и правильно заполнить анкету, указав полное имя Участника, почтовый адрес и иные персональные данные, предусмотренные анкетой, и загрузить на сайт снимок экрана, подтверждающий факт активации устройства в соответствии с пунктом 3.1.

3.3. Ikkala shart ham muhim va teng ahamiyatga ega. Ushbu shartlardan birortasi bajarilmagan taqdirda, Ishtirokchi Aksiyada qatnashish huquqiga ega bo‘lmaydi.

3.3. Оба условия являются важными и равнозначными. В случае невыполнения любого из этих условий Участник не имеет права на участие в Акции.

3.4. 3.1–3.2-bandlarda ko‘rsatilgan shartlarni to‘g‘ri bajargan Ishtirokchi avtomatik ravishda Tashkilotchining CRM ma’lumotlar bazasiga qo‘shiladi, unda Aksiya uchun shaklni to‘g‘ri to‘ldirgan barcha Ishtirokchilar ko‘rsatiladi.

3.4. Участник, правильно выполнивший условия, предусмотренные пунктами 3.1–3.2, автоматически добавляется в CRM-базу Организатора, в которой отображаются все Участники, правильно заполнившие форму для участия в Акции.

3.5. Aksiyada ishtirok etish faqat Ishtirokchi ushbu Qoidalarda belgilangan barcha talablarga to‘liq va so‘zsiz rioya qilgan taqdirdagina ruxsat etiladi.

3.5. Участие в Акции допускается исключительно при условии полного и безусловного соблюдения Участником всех требований, установленных настоящими Правилами.

3.6. Ayni bir Ishtirokchi Aksiya o‘tkaziladigan butun davr mobaynida Aksiyada ko‘pi bilan bir marta ishtirok etishga haqli. Ikki yoki undan ortiq marta ishtirok etilgan taqdirda ushbu shaxsning mazkur aksiyadagi va

3.6. Один и тот же Участник вправе принять участие в Акции не более одного раза в течение всего срока проведения Акции. При условии участия два или более раз участие этой личности аннулируется в данной и в других

«SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN» MChJ nomidan tashkil etiladigan keyingi boshqa aksiyalardagi ishtiroki bekor qilinadi. Ayni bir jismoniy shaxsning unga tegishli yoki uning nazorati ostidagi ikki yoki undan ortiq ijtimoiy tarmoq akkaunti orqali Aksiyada ishtirok etishi takroriy ishtirok deb e'tirof etiladi. Bunda ayni bir aksiya materialining bir vaqtning o'zida bir nechta akkauntdan, shu jumladan birgalikda e'lon qilish (Collab) funksiyasi orqali joylashtirilishi, agar mazkur akkauntlar ayni bir shaxsga tegishli ekani yoki uning nazorati ostida ekani aniqlansa, bunday shaxsni bitta ishtirokchi deb e'tirof etish uchun mustaqil asos hisoblanmaydi.	последующих акциях, организованных от имени ООО «SAMSUNG ELECTRONICS UZBEKISTAN». Участие одного и того же физического лица в Акции посредством двух и более аккаунтов в социальных сетях, принадлежащих такому лицу или находящихся под его контролем, признается повторным участием. При этом размещение одного и того же материала Акции одновременно с нескольких аккаунтов, в том числе посредством функции совместной публикации (Collab), не является самостоятельным основанием для признания такого лица одним участником, если установлено, что указанные аккаунты принадлежат одному и тому же лицу либо находятся под его контролем.
3.7. Aksiya Tashkilotchisi Ishtirokchilar taqdim etgan ma'lumotlarning ishonchliligi, to'liqligi va to'g'riligini, shuningdek ular mazkur Qoidalar shartlariga rioya etganini tekshirishga haqli. Ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilgani, ishtirok etish shartlari buzilgani yoki mazkur Qoidalar talablariga boshqa nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda Aksiya Tashkilotchisi bunday Ishtirokchini Aksiyada ishtirok etishiga yo'l qo'ymaslikka va/yoki uning ishtirok natijalarini oldindan ogohlantirmasdan va hech qanday kompensatsiyasiz bekor qilishga haqli.	3.7. Организатор Акции вправе осуществлять проверку достоверности, полноты и корректности предоставленных Участниками сведений, а также соблюдения ими условий настоящих Правил. В случае выявления предоставления недостоверных данных, нарушения условий участия либо иных несоответствий требованиям настоящих Правил Организатор Акции вправе отказать такому Участнику в участии в Акции и/или аннулировать результаты его участия без предварительного уведомления и без каких-либо компенсаций.
3.8. Firibgarlik, insofsiz harakatlar yoki ayni bir shaxsning takroran ro'yxatdan o'tganligi faktlari aniqlangan taqdirda uning tegishli aksiyadagi ishtiroki haqiqiy emas deb topiladi. Tashkilotchi bunday ishtirokchining natijalarini joriy aksiya doirasida ham, barcha keyingi aksiyalarda ham qo'shimcha ogohlantirishsiz bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.	3.8. В случае выявления фактов мошенничества, недобросовестных действий либо повторной регистрации одного и того же лица его участие в соответствующей акции признается недействительным. Организатор оставляет за собой право аннулировать результаты такого участника как в рамках текущей акции, так и во всех последующих акциях без дополнительного уведомления.
4. Sovg'alar / 4. Подарки	
4.1. SAMSUNG tovar belgisi ostidagi quyidagi tovarlar Aksiya Sovg'alari («Sovg'a») hisoblanadi: • WW6100A kir yuvish mashinasi (WW80AG6S28AXLD) — 1 dona; • MW5000T mikroto'lqinli pech (MG23T5018AE/UZ) — 1 dona; • 43 dyuymli televizor Crystal UHD 4K (UE43U8001HUXUZ) — 1 dona. Sovg'alarning umumiy soni — 3 (uchta).	4.1. Подарками по Акции являются следующие товары под товарным знаком SAMSUNG («Подарок»): • WW6100A стиральная машина (WW80AG6S28AXLD) — 1 шт.; • MW5000T Микроволновая печь (MG23T5018AE/UZ) — 1 шт.; • 43-дюймовый телевизор Crystal UHD 4K (UE43U8001HUXUZ) — 1 шт. Общее количество Подарков составляет 3 (три).
4.2. Sovg'alarning soni va turlari mazkur Qoidalarning 4.1-bandida belgilangan. Sovg'alar soni yoki turlarini o'zgartirishga faqat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan hollarda va tartibda, Ishtirokchilarning qonuniy huquqlariga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi.	4.2. Количество и виды Подарков установлены пунктом 4.1 настоящих Правил. Изменение количества или видов Подарков допускается только в случаях и порядке, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан, с соблюдением законных прав Участников.
4.3. Sovg'a rangi Rasmiy hamkor omborida yoki 1.1-bandga muvofiq manzil hisoblangan Rasmiy hamkorning Sovg'alarni topshirish punktida tovar mavjudligiga	4.3. Цвет Подарка зависит от наличия товара на складе Официального партнера или в точке выдачи Подарков Официального партнера, которой считается адрес согласно

bog‘liq. Rang Aksiya saytidagi tasvirdan ham farq qilishi mumkin.	п. 1.1. Также цвет может отличаться от изображения на Сайте Акции.
4.4. Aksiya doirasida olingan Sovg‘aga ushbu turdagi tovarlar uchun standart kafolat tatbiq etiladi.	4.4. На Подарок, полученный в рамках Акции, действует стандартная гарантия для товаров такого типа.
4.5. Ishtirokchi quyidagi hollarda Aksiyada ishtirok etish huquqini yo‘qotadi va Sovg‘ani olishga da’vo qila olmaydi:	4.5. Участник теряет право на участие в Акции и не может претендовать на получение Подарка в случаях:
4.5.1. Aksiyaning biror-bir sharti buzilganda;	4.5.1. нарушения каких-либо условий Акции;
4.5.2. Ishtirokchi bilan bog‘lanish uchun ishonchsiz/noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etilganda;	4.5.2. при предоставлении недостоверных/некорректных данных для контакта с Участником;
4.5.3. firibgarlikka urinish yoki boshqa qonunga xilof harakatlar faktlari aniqlanganda;	4.5.3. при выявлении фактов попытки мошенничества или иных противоправных действий;
4.5.4. ro‘yxatdan o‘tish ma’lumotlari uchinchi shaxslarga berilganda;	4.5.4. в случае передачи регистрационных данных третьим лицам;
4.5.5. mazkur Qoidalarni buzgan holda ma’lumotlar/hujjatlarni taqdim etish va/yoki foto/video tasvirga olishdan bosh tortilganda.	4.5.5. при отказе в предоставлении информации/документов и/или отказе от фото/видеосъемки в нарушение настоящих Правил.
4.6. Tashkilotchi hech qanday holatda Sovg‘ani pul ekvivalentiga almashtirmaydi va/yoki tegishli Sovg‘a o‘rniga boshqa tovar bermaydi.	4.6. Ни при каких обстоятельствах Организатор не осуществляет замену Подарка на эквивалент в денежной сумме и/или не предоставляет замену соответствующего Подарка на иной товар.
4.7. Sovg‘ani olish munosabati bilan yuzaga keladigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni Tashkilotchi mustaqil ravishda va o‘z hisobidan to‘laydi.	4.7. Налоги и иные обязательные платежи, возникающие в связи с получением Подарка, Организатор уплачивает самостоятельно и за свой счет.
4.8. Agar biror-bir shaxs Sovg‘a qiymatini, soliqlarni yoki boshqa to‘lovlarni to‘lashni talab qilsa, iltimos, bunday to‘lovlarni amalga oshirmang va darhol Tashkilotchi bilan bog‘laning.	4.8. Если какие-либо лица требуют оплаты стоимости Подарка, налогов или иных платежей, Участнику не следует производить такие оплаты, а о случившемся необходимо незамедлительно сообщить Организатору.
4.9. G‘olib tomonidan 2027-yil 30-yanvargacha talab qilib olinmagan Sovg‘alar talab qilib olinmagan deb e’tirof etiladi. Talab qilib olinmagan Sovg‘alar saqlanmaydi va Tashkilotchi tomonidan o‘z xohishiga ko‘ra foydalaniladi. Sovg‘a G‘olibga 2026-yil 30-dekabrdan 2027-yil 30-yanvargacha bo‘lgan davrda topshiriladi.	4.9. Подарки, не востребованные Победителем до 30 января 2027 года, считаются невостребованными. Невостребованные Подарки не хранятся и используются Организатором по своему усмотрению. Подарок будет вручен Победителю в период с 30 декабря 2026 года по 30 января 2027 года.

5. Aksiya G‘oliblarini aniqlash va Sovg‘alarni topshirish tartibi / 5. Порядок определения Победителей Акции и выдачи Подарков

5.1. Barcha shartlarni bajargan Ishtirokchi mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq Sovg‘alar o‘yinida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.	5.1. Участник, выполнивший все условия, предусмотренные настоящими Правилами, получает право участвовать в розыгрыше Подарков.
5.2. Aksiya G‘olib(lar)ini aniqlash maqsadida Tashkilotchi 3.1–3.3-bandlarga muvofiq ishtirok etish shartlarini tegishli tarzda bajargan Ishtirokchilardan birini tasodifiy sonlar generatori yordamida tasodifiy tanlash yo‘li bilan o‘yin o‘tkazadi.	5.2. Для определения Победителя(ей) Акции Организатор проводит розыгрыш путем случайного выбора одного из Участников, надлежащим образом выполнивших условия участия согласно пунктам 3.1–3.3, с использованием генератора случайных чисел.
5.3. O‘yinni o‘tkazish uchun Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etishning barcha shartlarini bajargan Ishtirokchilarning tartib raqamlarini o‘z ichiga olgan	5.3. Для проведения розыгрыша Организатор формирует сводную таблицу Участников, выполнивших все условия участия в Акции. Каждый Участник получает один порядковый номер и участвует в розыгрыше один раз.

umumiy jadvalni shakllantiradi. Har bir Ishtirokchi bitta tartib raqamini oladi va o‘yinda bir marta ishtirok etadi.

5.4. G‘oliblar ketma-ket aniqlanadi: avval uchinchi o‘rinni egallagan va uchinchi Sovg‘ani oluvchi G‘olib, so‘ng ikkinchi o‘rinni egallagan va ikkinchi Sovg‘ani oluvchi G‘olib, oxirida esa birinchi o‘rinni egallagan va birinchi Sovg‘ani oluvchi G‘olib aniqlanadi.

5.5. Har bir G‘olibni aniqlash uchun Tashkilotchi umumiy jadvaldagi Ishtirokchilardan birining tartib raqamiga mos keladigan tasodifiy son qiymatini shakllantiruvchi tasodifiy sonlar generatoridan (randomayzerdan) foydalanadi.

5.6. Uchinchi yoki ikkinchi o‘rinni egallagan G‘olib aniqlangandan so‘ng uning tartib raqami keyingi o‘yindan chiqariladi. Shunday qilib, bir Ishtirokchi Aksiya doirasida bittadan ortiq Sovg‘a olishi mumkin emas.

5.7. G‘oliblarni aniqlash Samsung Uzbekistanning rasmiy sahifasida — @samsunguzbekistan Instagram ijtimoiy tarmog‘idagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda o‘tkaziladi, u 2026-yil 29-dekabr kuni soat 19:00 da (Toshkent vaqti bilan) bo‘lib o‘tadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri efir davomida Tashkilotchi tasodifiy sonlar generatori yordamida o‘yin jarayonini ommaga namoyish etadi, shuningdek aniqlangan G‘oliblarning ismi va familiyasini e’lon qiladi.

5.8. O‘yin natijalari va G‘oliblarning ismlari Samsung Uzbekistanning rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalarida qo‘shimcha ravishda e’lon qilinishi mumkin.

5.9. Tashkilotchi G‘olib bilan anketada ko‘rsatilgan aloqa ma’lumotlari orqali bog‘lanadi va jami 3 (uch) martagacha bog‘lanish urinishlarini amalga oshiradi. G‘olib shuningdek 2027-yil 30-yanvargacha Samsung Uzbekistanning rasmiy ijtimoiy tarmoq akkauntlaridan biriga xabar yuborish orqali Tashkilotchi bilan mustaqil ravishda bog‘lanib, o‘z shaxsini va Sovg‘ani olish huquqini tasdiqlashi shart.

5.10. Agar G‘olib Tashkilotchining qo‘ng‘iroqlariga 3 (uch) urinish davomida javob bermasa, belgilangan muddatda Tashkilotchi bilan bog‘lanmasa, shaxsini tasdiqlash uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etmasa yoki Sovg‘ani olish huquqini boshqa usulda tasdiqlamasa, uning ishtirok natijalari bekor qilinadi va u Sovg‘ani olish huquqisiz G‘olib maqomini yo‘qotadi.

5.11. G‘olibning ishtirok natijalari bekor qilingan taqdirda, Tashkilotchi ilgari G‘olib deb aniqlanmagan Ishtirokchilar orasida tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda tegishli Sovg‘a uchun takroriy o‘yin o‘tkazishga haqli. Takroriy o‘yin xuddi shu o‘rin va xuddi shu Sovg‘a uchun o‘tkaziladi.

5.4. Определение Победителей осуществляется последовательно: сначала определяется Победитель, занявший третье место и получающий третий Подарок, затем занявший второе место и получающий второй Подарок, и в последнюю очередь занявший первое место и получающий первый Подарок.

5.5. Для определения каждого Победителя Организатор использует генератор случайных чисел (рандомайзер), который формирует числовое значение, соответствующее порядковому номеру одного из Участников в сводной таблице.

5.6. После определения Победителя, занявшего третье или второе место, его порядковый номер исключается из дальнейшего розыгрыша. Таким образом, один Участник не может получить более одного Подарка в рамках Акции.

5.7. Определение Победителей проводится в ходе прямой трансляции в Instagram на официальной странице Samsung Uzbekistan — @samsunguzbekistan, которая состоится 29 декабря 2026 года в 19:00 (по времени Ташкента). В рамках прямой трансляции Организатор публично демонстрирует процесс розыгрыша посредством генератора случайных чисел, а также имя и фамилию определенных Победителей.

5.8. Результаты розыгрыша и имена Победителей могут быть дополнительно опубликованы на официальных страницах Samsung Uzbekistan в социальных сетях.

5.9. Организатор связывается с Победителем по контактным данным, указанным в анкете, совершая до 3 (трех) попыток связи. Победитель также обязан в срок до 30 января 2027 года самостоятельно связаться с Организатором, направив сообщение на один из официальных аккаунтов Samsung Uzbekistan в социальных сетях, чтобы подтвердить свою личность и право на получение Подарка.

5.10. Если Победитель не ответил на звонки Организатора в течение 3 (трех) попыток, не связался с Организатором в установленный срок, не предоставил сведения, необходимые для подтверждения личности, или иным образом не подтвердил право на получение Подарка, результаты его участия аннулируются, и он утрачивает статус Победителя без права на получение Подарка.

5.11. В случае аннулирования результатов участия Победителя Организатор вправе провести повторный розыгрыш соответствующего Подарка среди Участников, не являющихся ранее определенными Победителями, с использованием генератора случайных чисел. Повторный

	розыгрыш проводится в отношении того же призового места и того же Подарка.
5.12. Agar o‘yin natijasida ilgari Tashkilotchi o‘tkazgan aksiyalarda G‘olib bo‘lgan va bunday aksiyalar doirasida sovg‘a olgan Ishtirokchi aniqlansa, uning mazkur Aksiyadagi ishtirok natijalari bekor qilinadi va u G‘olib maqomi hamda Sovg‘a olish huquqini yo‘qotadi.	5.12. Если в результате розыгрыша будет определен Участник, который ранее уже являлся Победителем акций Организатора и получал приз в их рамках, его результаты участия в настоящей Акции аннулируются, и он утрачивает статус Победителя и право на получение Подарка.
6. Sovg‘ani olish uchun G‘olib quyidagilarni bajarishi kerak / 6. Для получения Подарка Победителю необходимо	
6.1. Mazkur Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan Sovg‘alarni topshirish punktiga shaxsan va o‘z hisobidan kelish;	6.1. Лично и за свой счет явиться в Точку выдачи Подарков, указанную в п. 1.5 настоящих Правил;
6.2. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasportini, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar uchun esa yashash guvohnomasini taqdim etish;	6.2. Предъявить паспорт гражданина Республики Узбекистан, а для иностранных граждан и лиц без гражданства — вид на жительство;
6.3. Sovg‘ani qabul qilish-topshirish dalolatnomasini to‘ldirish va imzolash;	6.3. Заполнить и подписать Акт приема-передачи Подарка;
6.4. Fuqaroning JShShIR raqamini taqdim etish;	6.4. Предъявить ПИНФЛ гражданина;
6.5. Zarur bo‘lganda qo‘lida olingan sovg‘a bilan fotohisobot o‘tkazilishiga rozilik berish.	6.5. При необходимости согласиться на проведение фотоотчета с полученным подарком в руках.
6.6. Zarur bo‘lganda o‘tkazilgan Aksiya natijalari Tashkilotchi tomonidan 2026-yil 30-dekabrdan kechiktirmay Aksiya saytida va/yoki Tashkilotchining ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qilinadi.	6.6. При необходимости результаты проведенной Акции будут опубликованы Организатором на Сайте Акции и/или в социальных сетях Организатора не позднее 30 декабря 2026 года.
6.7. Aksiya G‘olibi Sovg‘ani faqat mazkur Qoidalarning 1.5-bandida ko‘rsatilgan Sovg‘alarni topshirish punktida olishi mumkin;	6.7. Победитель Акции имеет возможность получить Подарок исключительно в Точке выдачи Подарков, указанной в п. 1.5 настоящих Правил;
6.8. Sovg‘alarni topshirish punktlari Aksiya G‘oliblariga Sovg‘alarni faqat Aksiyaning barcha shartlariga qat’iy rioya etilgan taqdirda topshiradi.	6.8. Точки выдачи Подарков выдают Подарки Победителям Акции исключительно при условии строгого соблюдения всех условий Акции.
7. Aksiya ishtirokchisining huquq va majburiyatlari / 7. Права и обязанности Участника Акции	
7.1. Aksiya ishtirokchisining huquqlari:	7.1. Права Участника Акции:
– mazkur Qoidalar bilan tanishish;	– ознакомиться с настоящими Правилами;
– mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda Aksiyada ishtirok etish;	– принять участие в Акции в порядке, определенном настоящими Правилами;
– Rasmiy hamkorlarning ochiq resurslari va Aksiya saytidagi aloqa kanallari orqali Aksiyani o‘tkazish muddatlari hamda shartlari haqida ma’lumot olish;	– получать информацию о сроках и условиях проведения Акции на публичных ресурсах Официальных партнеров и каналах коммуникации на Сайте Акции;
– mazkur Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda, ular haqida Aksiya saytidan ma’lumot olish;	– получить информацию об изменении настоящих Правил на Сайте Акции, в случае возникновения таковых;
– Qoidalarga kiritilgan o‘zgartirishlarga rozi bo‘lmagan taqdirda Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish, bunda Ishtirokchining qonunchilikda nazarda tutilgan huquqlari saqlanib qoladi;	– отказаться от участия в Акции в случае несогласия с изменениями Правил, сохраняя при этом права, предусмотренные законодательством;
– Aksiya Tashkilotchisi haqida ma’lumot olish;	– получить сведения об Организаторе Акции;
– mazkur Qoidalarga muvofiq Sovg‘a topshirilishini talab qilish;	– запросить выдачу Подарка в соответствии с настоящими Правилами;
7.2. Aksiya ishtirokchisining majburiyatlari:	7.2. Обязанности Участника Акции:

– Qoidalarga rioya etish, shu jumladan Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq barcha harakatlarni mazkur Qoidalarda belgilangan muddatlarda bajarish;	– соблюдать Правила, в т.ч. выполнять все действия, связанные с участием в Акции, в установленные настоящими Правилами сроки;
– Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) Internet, telefon va boshqa xarajatlarni mustaqil ravishda ko‘tarish;	– нести самостоятельно все расходы, связанные с участием в Акции, включая (но не ограничиваясь) расходы за Интернет, телефон и т.п.;
– mazkur Qoidalar va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.	– нести иные обязательства, предусмотренные настоящими Правилами и действующим законодательством Республики Узбекистан.
8. Aksiya Tashkilotchisining huquq va majburiyatlari / 8. Права и обязанности Организатора Акции	
8.1. Tashkilotchining huquqlari:	8.1. Права Организатора:
– mazkur Qoidalarni o‘zgartirish yoki Aksiyani muddatidan oldin tugatish faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ruxsat etilgan hollarda, unda belgilangan muddat va tartibga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Tashkilotchi Ishtirokchilarni Aksiya saytida hamda qonunchilikda talab etilgan boshqa usullarda xabardor qiladi. Bunda Ishtirokchilarning qonunchilikda nazarda tutilgan huquqlari va Tashkilotchining majburiyatlari saqlanib qoladi.	– изменять настоящие Правила или досрочно прекращать Акцию только в случаях, в сроки и в порядке, допускаемых законодательством Республики Узбекистан. Организатор уведомляет Участников путем размещения сообщения на Сайте Акции, а также иными способами, требуемыми законодательством. При этом сохраняются права Участников и обязанности Организатора, предусмотренные законодательством.
– mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan hollarda Ishtirokchilardan zarur ma’lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni so‘rash;	– запрашивать у Участников необходимую информацию и документы в случаях, предусмотренных настоящими Правилами, а также иные документы для предоставления в государственные органы;
– Tashkilotchi mazkur Aksiya Qoidalari va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan barcha huquqlardan foydalanadi;	– Организатор пользуется всеми правами, предусмотренными настоящими Правилами Акции и действующим законодательством Республики Узбекистан;
– Qoidalarning 3.1–3.3-bandlarida ko‘rsatilgan barcha shartlarni to‘g‘ri va to‘liq bajarmagan Aksiya Ishtirokchisiga Sovg‘alarni topshirishni rad etish;	– отказать в выдаче Подарков Участнику Акции, который не выполнил все условия, указанные в пп. 3.1–3.3 Правил, правильно и в полном объеме;
– Ishtirokchilarning shaxsga doir ma’lumotlarini marketing va shunga o‘xshash tadqiqot maqsadlarida 1 yil davomida qayta ishlash huquqi.	– право на обработку персональных данных участников в маркетинговых и аналогичных исследовательских целях в течение 1 года.
9. Boshqa shartlar / 9. Иные условия	
9.1. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari unda ishtirok etish orqali Aksiya Qoidalariga rozilik bildiradi hamda ularga rioya etish va ularni bajarish majburiyatini oladi. Ishtirokchi quyidagi hollarda Sovg‘ani olish huquqini yo‘qotadi:	9.1. Все Участники Акции, принимая в ней участие, соглашаются с Правилами Акции, обязуются придерживаться и выполнять их. Участник теряет право на получение Подарка в случае, если:
– mazkur Aksiya Qoidalarini buzsa;	– нарушил настоящие Правила Акции;
– Sovg‘ani olish uchun firibgarlik va/yoki aldov harakatini sodir etsa;	– совершил акт мошенничества и/или обмана для получения Подарка;
– ishonchsiz/noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etsa;	– предоставил недостоверные/некорректные данные;
– Tashkilotchi Ishtirokchi ko‘rsatgan aloqa ma’lumotlari orqali 30 kun mobaynida u bilan bog‘lana olmasa.	– неспособности Организатора связаться с Участником по указанным им контактным данным в течение 30 дней.
9.2. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi mazkur Qoidalarga so‘zsiz roziligini bildiradi. Ishtirokchining Qoidalarga to‘liq va/yoki qisman rioya etishdan bosh	9.2. Принимая участие в Акции, Участник выражает свое безусловное согласие с настоящими Правилами. Отказ

tortishi uning Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortishi deb e’tirof etiladi.

9.3. Aksiyani o‘tkazish jarayonida Ishtirokchidan identifikatsiya qilish va uning anketada ko‘rsatilgan shaxsga muvofiqligini tasdiqlash uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjatni, shuningdek uning nusxasini taqdim etish talab qilinishi mumkin;

9.4. Aksiya aksiya, lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa qimor o‘yini hisoblanmaydi;

9.5. Xizmat ko‘rsatish sifatini nazorat qilish va fikr-mulohaza olish maqsadida Ishtirokchiga Tashkilotchi/Hamkorning Sifat bo‘limidan qo‘ng‘iroq qilishlari mumkin. Ishtirokchi o‘z fikrini bildirishdan bosh tortishi mumkin.

9.6. Ommaviy ofertaning o‘zbek va rus tillaridagi versiyalari o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda rus tilidagi versiya ustun kuchga ega bo‘ladi.

Aksiya bo‘yicha barcha savollar yuzasidan Tashkilotchining aloqa ma’lumotlari orqali murojaat qiling.

Tashkilotchi koll-markazining aloqa ma’lumotlari:

1336 — yagona qo‘llab-quvvatlash xizmati.

Участника от соблюдения Правил полностью и/или в части признается отказом Участника от участия в Акции.

9.3. В ходе исполнения Акции у Участника могут потребовать предъявления, а также копии удостоверения личности для идентификации и подтверждения Участника с лицом, указанным в анкете;

9.4. Акция не является конкурсом, лотереей либо иной основанной на риске азартной игрой;

9.5. Участнику могут позвонить из Отдела качества для контроля качества обслуживания Организатора/Партнера для получения отзыва. Участник может отказаться от предоставления своего мнения.

9.6. В случае расхождения между версиями Публичной оферты на узбекском и русском языках версия на русском языке имеет преимущественную силу.

По любым вопросам касательно Акции обращайтесь по контактным данным Организатора.

Контактные данные колл-центра Организатора:

1336 – единая служба поддержки.